


**TOSHKENT VILOYATINING  
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
*(2019 yil yanvar-avgust)*

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 11196.5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,0 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1080,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 0,8%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 9007,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 6,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1108,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 1,8 %) tashkil etdi.


**Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**


2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon va Bekobod shahri, Toshkent va Parkent tumanlarida qayd etildi.

Jami viloyat Chakana savdo aylanmasida  
shahar va tumanlarning ulushi, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasinig o'sish sur'atlari(%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 %ga o'sdi va 1080,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,6 % ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 9007,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 6,5 %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 80,4 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


2018 yil  
yanvar-avgust



2019 yil  
yanvar-avgust



**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Nurafshon shahri (93,9 %), Oqqo'rg'on tumani (94,0 %), Yangiyo'l shahri (88,4 %), Bostonliq tumani (87,3%), Parkent tumani (87,7%), Yangiyo'l (90,9 %) va Piskent (82,9) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chinoz tumani (30,1 %), Bekobod shahri (22,9 %), Toshkent tumani (17,3 %), O'rtachirchiq tumani (13,8 %), Yuqorichirchiq tumani (12,1 %), Qibray tumani (10,8 %), Chirchiq shahri (12,2 %) va Ohangaron shahrlarida (18,0 %) kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**


|                          | Yirik korxonalar<br>(mln.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan,<br>%da | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik<br>(mln.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan,<br>%da |
|--------------------------|--------------------------------|---|---|---|
| <b>Toshkent viloyati</b> | <b>1080472,4</b>               | <b>96,8</b>                                 | <b>9007082</b>                                      | <b>106,5</b>                                |
| Nurafshon sh.            | 749,6                          | 115,2                                       | 440974,3  | 170,0                                       |
| Olmalıq sh.              | 134780,5                       | 105,2                                       | 796325,9  | 102,3                                       |
| Angren sh.               | 37585,5                        | 123,1                                       | 448609,9  | 101,6                                       |
| Bekobod sh.              | 142741,7                       | 179,3                                       | 441323,7  | 93,0  |
| Ohangaron sh.            | 38027,5                        | 95,6  | 138857,4  | 103,1                                       |
| Chirchiq sh.             | 72999,2                        | 91,9  | 451581,2  | 106,9                                       |
| Yangiyo`l sh.            | 18762,2                        | 89,0  | 481702,9  | 101,2                                       |
| <i>tumanlar:</i>         |                                |   |   |   |
| Oqqo`rg`on               | 6404,6                         | 82,6  | 407474,9  | 101,4                                       |
| Ohangaron                | 6527,8                         | 193,6                                       | 150055,4  | 105,7                                       |
| Bekobod                  | 22483,6                        | 538,2                                       | 219357,5  | 101,5                                       |
| Bo`stonliq               | 29090,8                        | 67,6  | 425657,8  | 104,4                                       |
| Bo`ka                    | 14369,2                        | 86,5  | 290809,4  | 103,3                                       |
| Quyichirchiq             | 3034,9                         | 84,4  | 163300,9  | 104,0                                       |
| Zangiota                 | 67221,6                        | 93,8  | 1189260,1   | 104,1                                       |
| Yuqorichirchiq           | 48358,5                        | 49,3  | 324646,1  | 117,4                                       |
| Qibray                   | 89008,5                        | 73,5  | 616714,1  | 112,6                                       |
| Parkent                  | 18056,0                        | 116,0                                       | 363986,7  | 103,1                                       |
| Piskent                  | 9791,6                         | 97,8  | 198253,3  | 102,0                                       |
| O`rtachirchiq            | 30501,4                        | 87,2  | 174196,9  | 107,9                                       |
| Chinoz                   | 155784,4                       | 93,4  | 325594,8  | 110,0                                       |
| Yangiyo`l                | 21406,7                        | 106,2                                       | 488453,7  | 106,9                                       |
| Toshkent                 | 112786,5                       | 94,0  | 469945,0  | 107,2                                       |

2019 yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 3850,5 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,6%ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Yangiyo'l shahri (911,4 ming.so'm), Zangiota tumani (7286,7 ming.so'm) va Olmaliq shahri (7857,0 ming.so'm) hissasiga to'g'ri keladi.

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

|                          | Ming so'm     | O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|--------------------------|---------------|--|
| <b>Toshkent viloyati</b> | <b>3850,5</b> | <b>103,6</b>                             |
| Nurafshon sh.            | 9718,8        | 161,9                                    |
| Olmaliq sh.              | 7857,0        | 101,0                                    |
| Angren sh.               | 3107,3        | 101,4                                    |
| Bekobod sh.              | 6597,4        | 103,6                                    |
| Ohangaron sh.            | 5693,4        | 100,1                                    |
| Chirchiq sh.             | 3838,9        | 103,7                                    |
| Yangiyo'l sh.            | 9114,9        | 99,9                                     |
| <b>tumanlar:</b>         |               |  |
| Oqqo'rg'on               | 4179,0        | 99,7                                     |
| Ohangaron                | 1839,0        | 105,4                                    |
| Bekobod                  | 1769,2        | 106,8                                    |
| Bo'stonliq               | 2910,0        | 100,0                                    |
| Bo'ka                    | 2845,1        | 100,3                                    |
| Quyichirchiq             | 1873,0        | 101,5                                    |
| Zangiota                 | 7286,7        | 102,4                                    |
| Yuqorichirchiq           | 2990,6        | 98,6                                     |
| Qibray                   | 4144,1        | 103,7                                    |
| Parkent                  | 2719,0        | 101,5                                    |
| Piskent                  | 2401,5        | 100,3                                    |

|               |        |       |
|---------------|--------|-------|
| O`rtachirchiq | 1503,5 | 102,3 |
| Chinoz        | 3919,0 | 102,2 |
| Yangiyo`l     | 2591,9 | 104,9 |
| Toshkent      | 3666,2 | 102,7 |




Jumladan, 2019 yilning yanvar-avgust oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 21,5 %ni tashkil etib, 302,4 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 8,2 % oshgan. Bunda jami savdo aylanmasining 78,5 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**TOSHKENT VILOYATINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
*(2019 yil yanvar-avgust)*

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 4589.9 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 0,4 %ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, 2514.1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,7 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 54,8 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkichni tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, O'rtachirchiq tumanida (98,2%), Bekobod tumani (75,9%), Qibray (80,4%) tumanlarida va Olmaliq shahrida (17,6) yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarining  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**





Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub`ektlari aylanmasining ulushi 45,2% ni tashkil etdi, kichik korxonalarining ulushi katta bo`lgan Ohangaron shahar (100,0%), Angren (99,9%) shahrida va Yangiyo`l (99,9%) tumanida kuzatildi.

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

|                          | Jami<br>(mlrd.so`m) | O`tgan<br>yilning shu<br>davriga<br>nisbatan,<br>%da | Yirik<br>korxonalar<br>(mlrd.so`m) | O`tgan<br>yilning shu<br>davriga<br>nisbatan,<br>%da | Kichik<br>korxonalar<br>(mlrd.so`m) | O`tgan<br>yilning shu<br>davriga<br>nisbatan,<br>%da |
|--------------------------|---------------------|--|------------------------------------|--|-------------------------------------|--|
| <b>Toshkent viloyati</b> | <b>4589,9</b>       | <b>94,6</b>  | <b>2514,1</b>                      | <b>88,6</b>  | <b>2075,8</b>                       | <b>103,0</b>   |
| Nurafshon sh.            | 23,1                | 101,8  | 0,1                                | 64,0   | 23,1                                | 101,9  |
| Olmaliq sh.              | 97,3                | 69,8   | 20,6                               | 31,9   | 76,7                                | 102,5  |
| Angren sh.               | 34,7                | 102,6  | 0                                  | 17,7   | 34,7                                | 103,2  |
| Bekobod sh.              | 48,6                | 101,2  | 0,2                                | 15,0   | 48,5                                | 103,4  |
| Ohangaron sh.            | 30,3                | 102,4  | 0                                  |  | 30,3                                | 102,4  |
| Chirchiq sh.             | 96,3                | 103,2  | 5,4                                | 85,5   | 90,9                                | 104,5  |
| Yangiyo`l sh.            | 129,7               | 105,5  | 0,4                                | 440,9  | 129,2                               | 105,3  |
| <i>tumanlar:</i>         |                     |  |                                    |  |                                     |  |
| Oqqo`rg`on               | 4,2                 | 97,9   | 0                                  | 6,4  | 4,2                                 | 101,3  |
| Ohangaron                | 29,7                | 102,2  | 0,2                                | 64,4   | 29,5                                | 102,6  |
| Bekobod                  | 57,5                | 285,4  | 42,5                               | 857,2  | 15,0                                | 98,8   |
| Bo`stonliq               | 49,9                | 82,0   | 0,5                                | 3,8  | 49,4                                | 101,9  |
| Bo`ka                    | 22,7                | 101,7  | 0                                  | 56,7   | 22,6                                | 101,8  |
| Quyichirchiq             | 17,8                | 100,8  | 0,1                                | 52,4   | 17,7                                | 101,5  |
| Zangiota                 | 503,2               | 94,2   | 19,1                               | 30,3   | 484,1                               | 102,7  |
| Yuqorichirchiq           | 88,0                | 114,2  | 10,5                               | 910,1  | 77,5                                | 102,2  |
| Qibray                   | 1038,8              | 89,7   | 835,1                              | 86,9   | 203,6                               | 103,8  |
| Parkent                  | 74,1                | 105,3  | 0,8                                | 727,5  | 73,3                                | 104,4  |
| Piskent                  | 25,7                | 100,3  | 0                                  | 10,2   | 25,7                                | 101,6  |
| O`rtachirchiq            | 1255,9              | 92,7   | 1233,7                             | 92,6   | 22,2                                | 101,8  |

|           |       |       |       |      |       |       |
|-----------|-------|-------|-------|------|-------|-------|
| Chinoz    | 366,5 | 90,4  | 327,1 | 89,2 | 39,4  | 101,5 |
| Yangiyo`l | 126,8 | 105,5 | 0,1   | 39,1 | 126,6 | 105,7 |
| Toshkent  | 469,0 | 101,3 | 17,5  | 80,9 | 451,6 | 102,3 |

## Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o`shish sur`ati Olmaliq (69,8 %) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo`limi  
Tel.:71-230-86-59